XALQ DEPUTATLARI MARHAMAT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 16-mart VII-19-24-1-24-K/26 Marhamat tumani

Marhamat tumanida maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflari miqdorini ko‘rib chiqish va tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy byudjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-son Qarori va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Marhamat tuman Kengashining sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy byudjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi PQ-387-son Qarori 8-bandi “a” kichik bandida 2026-yil 1-yanvardan boshlab obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan tuman (shahar)lar markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatishga ruxsat berilganligi, bunda chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatganlik bo‘yicha tariflar tuman (shahar)lar hokimliklari tomonidan xalq deputatlari tuman (shahar)lar Kengashlarida ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun kiritilishi belgilab qo‘yilganligi inobatga olinsin.

2. Marhamat tumani hududida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatganlik bo‘yicha tariflar to‘g‘risidagi tuman hokimligining tuman obodonlashtirish boshqarmasi va tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi bilan kelishilgan holda bergan taklifi ma’qullansin.

3. Marhamat tumani hududida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatganlik bo‘yicha tariflar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimligi matbuot xizmati (E.Jo‘rayeva) Marhamat tumani hududida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatganlik bo‘yicha tariflarni matbuotda e’lon qilsin hamda tuman hokimligi rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlar, sanoat, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (B.Abdullajonov), ijrosini ta’minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Abdurazzaqov hamda tuman hokimining o‘rinbosari D.Ismoilov zimmalariga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oy muddatdan so‘ng kuchga kirishi belgilansin.

Kengash raisi **MUSURMONKULOV ABDULPATTO XXX**

Xalq deputatlari Marhamat tumani
Kengashining
2026-yil 16-martdagi
VII-19-24-1-24-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Marhamat tumani hududida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatganlik bo‘yicha tariflar

T/r	Marhamat tumani bo‘yicha	QQSsiz	QQS bilan
1.	Tadbirkorlik subyektlariga bir metr^3 hajm uchun	65 000 so‘m	72 800 so‘m